



TA'LIM JARAYONIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING FIKRLASH FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI

To'liboyeva Shahnoza

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat
Pedagogika Instituti Pedagogika yo'nalishi
1-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695068>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 19-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

*Mustaqil fikrlash, Ijodiy fikrlash,
Tanqidiy fikrlash, Interfaol usullar,
Kollaborativ o'qitish, Muammoli
vazifalar*

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining fikrlash faolligini oshirish metodikalari, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullar haqida so'z boradi. Kollaborativ o'qitish, muammoli vazifalar, savol-javoblar, muhokamalar, ijodiy faoliyat, loyiha asosida ishlashning o'quvchilar fikrlash faolligini oshirishdagi o'rni yoritib beriladi. Maktab o'quvchilarining fikrlash jarayoni haqidagi olimlarning fikrlari,

O'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish - ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Fikrlash faolligi o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirib, o'rgangan bilimlari haqida mulohaza yuritishga imkon yaratadi. O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishi, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashda o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. 7—9 yoshli bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o'z fikrlarini bayon etish uchungina emas, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni barkamollikka erishtirishning garovidir. 6—11 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi. 5—6-sinflardagi o'quvchilar og'zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O'zi yozgan fikrni qayta-qayta o'qib, o'z nutqini analiz qilib ko'rishga majbur qiladi. O'quvchi yozib bayon qilayotganida, ko'pincha, bu ishni bir necha marta qayta ko'rib chiqishga, o'zgartirishga, to'ldirishga, qaytadan ishlab chiqishga majbur bo'ladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganida o'zining shu ishiga baho berilishini, ammo bu baho ishning faqat mazmuniga qarabgina berilib qolmasdan, balki shu bilan birga, o'z fikrining «qanday til» bilan bayon qilinganiga qarab ham baholanishini oldindan bilib turadi. Fikrlash texnikasi qobiliyatlarni rivojlantirish, izlanuvchanlik texnikasini egallashdan kelib chiqadi. Har qanday pedagogik texnologiya ham o'qituvchi, ham talabadagi fikrlash texnikasini amalga oshirish jaryonida sodir bo'ladi va rivojlanadi. Tabiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning funktsiyasi ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi. Atrofimizga qaraylik: bizni norozi qiladigan hamma holatlar bir-birimizni tushunmaslik, bir-birimiz bilan kelisha olmasligimiz, o'z fikrimizni o'z g'alar diqqatiga yetarli darajada asoslab,

nuqtai-nazarimizni, himoya qila olmasligimizdan kelib chiqadi. Donishmandlardan biri "oxirgi dalil-o'q" deb bekorga aytmagan. Demak, o'q otishning raqobatdoshi - ko'proq, salmoqliroq dalillarni keltirish ekan, ya'ni fikrlash ekan, u albatta - natijali bo'ladi.

Interfaol darslar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunday darslarda o'quvchilar guruhlariga bo'linib, muammolarni muhokama qilishadi, fikr almashadilar va o'zlarining nuqtai nazarlarini ifodalaydilar. Shu bilan birga, o'quvchilar turli vazifalarni hal qilishda ko'proq mustaqil fikrlashni talab qiladigan faoliyatlarga jalb etiladi. Interfaol usullarni kiritish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali natijalar beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi o'quvchilarni o'z fikrlarini tahlil qilish, dalillarni baholash, turli nuqtai nazarlardan qarash va qarorlar qabul qilishga undaydi. O'quvchilarga masalalarni turli tomondan ko'rib chiqishni o'rgatish, ularning yondashuvlarini kengaytiradi.

Muammoli vazifalar o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni yechish uchun o'ylashga undaydi. Bu usul o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil ravishda bildirishga, variantlarni tahlil qilishga va eng maqbul yechimni topishga rag'batlantiradi. O'quvchilarga real hayotda duch keladigan muammolarni kiritish orqali ularning fikrlash faolligini oshirish mumkin. Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yoki muammoni yechish mobaynida o'quvchi uning shartlarini bir necha variantda tasavvur qilsagina yechimga kelar ekan. Chunki kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir sekin fikrlaydi. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonmayon o'tirgan ikki o'quvchi bir xil yechimni belgilasada, o'sha yechimga kelish yo'llari har bir o'quvchida o'ziga xos bo'ladi. Mustaqil fikrlash – shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashi va nostandart yechimlarga ega bo'ladi. Demak, mustaqil fikr insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlari chegarasini kengaytiradi. O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo'lish (kognitiv dissonans)dan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi. Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni "esdan chiqaradi". Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi. (S.O.Rubinshteyn).

Kollaborativ o'qitish o'quvchilarni bir-biri bilan ishlashga undaydi, bu esa fikrlash faoliyatini kengaytiradi. O'quvchilar birgalikda masalalarni yechish, guruh muhokamalari o'tkazish orqali yangi fikrlarni kashf etishadi. Bu metodikada har bir o'quvchi o'z fikrini ifodalash, boshqalar bilan baham ko'rish va o'z nuqtai nazarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Darslarda savol-javoblar va muhokamalar o'quvchilarning fikrlarini shakllantirishda samarali usul bo'lishi mumkin. O'quvchilar savollarni tahlil qilib, ularga javob berishga harakat qilishadi. Bunda o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalashga imkon yaratish, shu bilan

birga, ularni boshqalar bilan baham ko'rishga undaydi. Muammolarni aniqlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda bu metodikalar muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy faoliyat va loyiha asosida ishlash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarni o'z fikrlarini yaratishga, yangi g'oyalar ishlab chiqishga va ularga tayanib, jamoaviy ishlarni amalga oshirishga undash muhimdir. Bu metodika o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Sh.R.Samarova boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash jarayonlari, diqqatning nazorat funksiyasi diagnostikasi va dinamikasida jinsiy (gender) farqlar mavjudligi, ular o'ziga xos davriy qonuniyatlarning hosilasi sifatida gavdalanishini e'tirof etadi. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Abu Nasr Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali amalga oshadi. Mantiq, ob'yekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Konfutsiy ta'limda o'qish va fikrlash, o'ylash muhimligini aytadi. Uningcha, o'qimaslik va fikr yuritmaslik bu- halokatdir. O'qilgan kitob haqida fikr qilinmasa, bunday o'qishning foydasi bo'lmaydi, bunday o'qish kishini toliqtiradi, o'qishni o'ylash, fikrlash bilan uzviy birlikda, o'z vaqtida amalga oshirish lozim.

Maktab o'quvchilarining fikrlash faolligini oshirish metodikasi o'quvchilarni faollashtirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday metodikalar dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini qo'llab-quvvatlab, bilimlarni hayotda qo'llash imkoniyatlarini oshiradi. Fikrlash faolligi oshgan o'quvchi esa nafaqat bilimli, balki innovatsion va ijodiy bo'lishi mumkin.

Maktab o'quvchilarida fikrlash faolligini oshirish yangi g'oyalar uchun zamin yaratadi. Dunyodagi eng mashhur kashfiyotlar, innovatsiyalar fikrlash asnosida yuzaga kelgan. Fikrlash bu biror bilimni shunchaki o'rganish emas, uni uqib olish va anglash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov- "Umumiy pedagogika"- T-2012;
- 2.R. Mavlonova, N. Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova "Pedagogika";
- 3.Mavlonova- "Umumiy pedagogika";
- 4.Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"-To'xtayeva Z.Sh-darslik-Buxoro-2020-"Durdona" nnashriyoti;
- 5.Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, SH.R.Mirzayeva, M.M.Qoziboyeva, "Ta'lim texnologiyalari"- T-2020;
- 6.Z.Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya".